

---

## TOSHLOQDA «OQILA AYOLLAR» HARAKATI FAOLLARINING YIG'ILISHI BO'LIB O'TD

Tumandagi 2-umumta'lim maktabida bo'lib o'tgan yig'ilishda xotin-qizlar faollari, "Oqila ayollar" harakati a'zolari qatnashdilar.

Dastlab, so'zga chiqqan ayollarni rehabilitasiya qilish va moslashtirish Farg'ona viloyati hududiy markazi rahbari J.Axmedova aholi farovonligining oshishi uchun imkon qadar salbiy holatlarni oldini olish kerakligi, bunda hamkor tashkilotlar bir qatorda mahalla fuqarolar yig'inlari xodimlari, "Oqila ayollar" harakati a'zolarining ishtiroki va yordami juda muhimligini ta'kidlab o'tdi. Yig'ilish qatnashchilariga mamlakatimizda xotin-qizlar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini tazyiq va zo'rvonlikdan ishonchli himoya qilishning institusional hamda huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirishga, bolalar orasida nazoratsizlikning va ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli ishlar haqida batafsil huquqiy tushuntirishlar berib o'tdi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2023 yil 11 aprel kungi O'RQ-829-sonli Qonuni mazmun mohiyati, qonunchilikdagi o'zgarishlar hususida ma'lumotlar berib o'tdi.

Yig'ilish davomida tuman hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i U.Marasulova, tuman adliya bo'limi boshlig'i Ya.Zulpixorov, maktabgacha va maktab ta'limi tuman bo'limi mudiri A.Soliev hamda tuman imom-xatibi Sh.Egamberdiyevlar so'zga chiqib, o'z fikr mulohazalarini bildirdilar.

2023-05-05 15:15:45